

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



QUVAYTDA RYEALISTIK HIKOYANING VUJUDGA KELISHI VA TADRIJIY RIVOJI

*Shahlo Ahmedova**Dotsenti, filologiya fanlari nomzodi,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Koʻrfaz arab mamlakatlari, jadal rivojlanish, “al-Bayan” (البيان) jurnali, Quvayt hikoyanavisligi, taraqqiyot evolyutsiyasi, XX asr ikkinchi yarmi, tadrijiy rivoj, realizm, sentimentalizm, romantizm

Annotatsiya: Arab adabiyotining yangilanish davri, yaʼni anʼanaviy oʻrta asr adabiyotidan yiroqlashishi hamda jahon adabiyotining gʻoyaviy-badiiy tajribasini oʻzlashtirish jarayoni XIX asr oʻrtalarida avval Misr, Lubnon va Suriyada, bir oz keyin Iroq va Magʻrib arab mamlakatlarida boshlandi. Koʻrfaz arab mamlakatlari bu jarayonga ancha kechroq. Quvayt va Bahrayn XX asr ikkinchi yarmidan, Qatar, BAA va Ummon esa 70-yillardan qoʻshildilar. Maʼrifatchilik harakati Quvayt va Bahraynda ancha sust oʻtdi, arab adabiyotida asosiy yoʻnalish maʼrifatparvarlik realizmi, sentimentalizm va qisman romantizmning unsurlari bilan uygʻunlashib ketgan edi. Ammo ikkinchi jahon urushidan soʻng, Koʻrfaz mamlakatlarida roʻy bergan keskin ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlar koʻp jihatdan maʼrifatparvarlik mafkurasini chetga surdi va bu yerda adabiyot rivojlanishining asosiy tamoyili ijtimoiy-ahloqiy tus olgan realizm boʻlib qoladi. Koʻrfaz adabiyotlarida voqelikni oʻzlashtirishning realistlik uslubini tarqalishida madaniy rivojlangan arab mamlakatlari ziyolilari bilan aloqalarning faollashuvi hamda umumarab axborot maydonining, yaʼni nashriy matbuot, radio, televideniyaning jadallashgan rivoji ulkan rol oʻynadi. Realistik yoʻnalish rivojlanar ekan, aynan shu bosqichida arab adabiyotida zamonaviy adabiyotning hikoya, ocherk, roman va pyesa kabi janrlari shakllandi. Bu asarlar matnida bir paytning oʻzida yorqin ifodalangan milliy chizgilar ham yuz koʻrsatdi; bular madaniyat, maishiy turmush, ijtimoiy-siyosiy hayotga xos xususiyatlar hamda voqelik bayonida arab tili mahalliy shevalarining qoʻllanilishi bilan belgilanadi.

EMERGENCE AND GRADUAL DEVELOPMENT OF REALISTIC STORY IN KUWAIT

Shahlo Ahmedova

*Associate professor, candidate of philological sciences,
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Gulf Arab countries, rapid development, "al-Bayan" (البيان) magazine, Kuwaiti storytelling, evolution of development, second half of the 20th century, gradual development, realism, sentimentalism, romanticism

Abstract: The period of renewal of Arabic literature, i.e. the departure from traditional medieval literature and the process of assimilation of the ideological and artistic experience of world literature began in the middle of the 19th century, first in Egypt, Lebanon and Syria, and a little later in the Arab countries of Iraq and the Maghreb. The Gulf Arab countries joined this process much later, Kuwait and Bahrain from the second half of the 20th century, and Qatar, UAE and Oman from the 70s. The Enlightenment movement was much slower in Kuwait and Bahrain, where the main trend in Arabic literature was mixed with elements of Enlightenment realism, sentimentalism, and partly romanticism. But after the Second World War, the dramatic socio-political and socio-economic changes that took place in the Gulf countries largely sidelined the ideology of the Enlightenment, and the main principle of literary development here remains realism with a socio-moral tone. The activation of relations with intellectuals of culturally developed Arab countries and the accelerated development of the general information field, that is, the publishing press, radio, and television, played a huge role in the spread of the realistic method of mastering reality in the literature of the Gulf. While the realist direction was developing, it was at this stage that the genres of modern literature, such as stories, essays, novels, and poems, were formed in Arabic literature. In the text of these works, clearly expressed national lines appeared at one time; these are determined by the characteristics of culture, domestic life, socio-political life, and the use of local dialects of the Arabic language in the statement of reality.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ И ПОСТЕПЕННОЕ РАЗВИТИЕ РЕАЛИСТИЧЕСКОЙ ИСТОРИИ В КУВЕЙТЕ

Шахло .Ахмедова

*Доцент, кандидат филологических наук,
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: страны Персидского залива, бурное развитие, журнал «Аль-Баян»(البيان), кувейтская новеллистика, эволюция развития, вторая половина XX века, постепенное развитие, реализм, сентиментализм, романтизм.

Аннотация: Эпоха обновления арабской литературы, то есть отход от традиционной средневековой литературы и процесс приятия идейно-художественного опыта мировой литературы начался в середине XIX века сначала в Египте, Ливане и Сирии, а затем в Ираке и арабских странах Магриба. Такие арабские страны Персидского залива, как Кувейт и Бахрейн присоединились к этому процессу гораздо позже, во второй половине XX века, а Катар, Саудовская Аравия и ОАЭ присоединились в 70-х годах. Движение просветительства в Кувейте и Бахрейне развивалось довольно медленно, в арабской литературе основное направление в литературе сочетало в себе идеи просветительства с элементами реализма, сентиментализма и, частично, с романтизмом. Однако после Второй мировой войны в странах Персидского Залива произошли социально-политические и социально-экономические изменения, что отодвинуло на второй план идеологию просветительства, и главным принципом литературного развития здесь стал социально-нравственный реализм. В распространении реалистического метода освоения действительности в литературе стран Персидского залива огромную роль сыграли активизация связей с интеллигентными слоями культурно развитых арабских стран и ускоренное развитие общего информационного поля, то есть периодической прессы, радио и телевидения.

В процессе развития реалистического направления в арабской литературе формируются такие жанры современной литературы, как рассказ, очерк, роман, пьеса. В тексте этих произведений одновременно появились ярко выраженные национальные черты; они определяются особенностями культуры, общественно-политической и бытовой жизни, использованием местных диалектов арабского языка при отображении действительности.

KIRISH

XX asr jahon adabiy jarayonida katta o'zgarishlar sodir bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Yevropa va Amerika adabiyotida yangi yo'nalish va oqimlarning paydo bo'lishi, mustahkam ildizlarga ega bo'lgan realizm bilan bir vaqtda modernizm uslubining rivoj topishi, yo'nalish va oqimlarning tez almashinuvi kuzatiladi.

Quvayt zamonaviy hikoyanavisligi asosan XX asr ikkinchi yarmida rivojlangan bo'lsa ham, uning dastlabki kurtaklari XX asr boshlarida namoyon bo'ldi.

1929-yilda "al-Quvayt" (الكويت) jurnali sahifalarida Xolid ibn Muhammad Faraj qalamiga mansub birinchi Quvayt hikoyasi – "Munira" (منيرة) e'lon qilindi. Shakl va mazmuniga ko'ra bu asar Misr adabiyotidagi aynan shu janrga mansub asarlarni eslatar edi. Hikoyada ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar arafasida odamlar orasida endi paydo bo'layotgan yangi munosabatlar ko'rsatiladi: unda ikkiyuzlamachilik, zo'ravonlik va riyokorlik fosh qilinadi. Muallif yosh, go'zal qiz taqdiri to'g'risida

hikoya qiladi. Erta turmushga chiqqan bu qiz hech farzandli bo'la olmaydi. Bu yo'lda u ko'p azoblar chekadi. Oxir-oqibat u o'z joniga qasd qiladi. Muallif "ayol mavzusi"ni mustahkam ildiz otgan ayol kishiga past nazar bilan qarash odati bilan bog'laydi, oiladagi baxt er-xotinning bir-birini tushunishda, ayolga shafqat ko'zi bilan qarashda, deb biladi [1:17-20].

XX asr 40-yillari oxiridan boshlab Quvaytda zamonaviy adabiyot shakllana boshladi. Bu adabiyot zimmasiga voqelikni va undagi insonni real tasvirlash vazifasi tushgan ekan, bu vazifa ijrosi uchun hikoya janri juda qulay keladi. Zero, hikoya janrini hozirjavobligi, jarayon va voqealarga tez munosabat bildira olishi kabi xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadigi. Shuning uchun ham "u hamma xalqlarning adabiyotlarida eng ko'p rivoj topgan janr hisoblanadi"[2]. Shu e'tibordan dastlabki davrda an'analar ta'sirida bo'lgan yangi Quvaytdagi hikoya janri ham o'z rivojida eski shakllarga yangi mazmun singdirilgan ko'rinishdan to' eng zamonaviy shakldagi hikoyalar holiga kelgunicha ulkan tajriba va taraqqiyot evolyutsiyasini bosib o'tdi. Quvayt hikoyasi evolyutsiyasi o'z taraqqiyotida bir necha bosqichlarni boshdan kechirdi.

Arab tanqidchilarining fikricha, zamonaviy Quvayt hikoyasining vujudga kelishi XX asr 40-yillariga to'g'ri keldi. Uning shakllanishi 1946-yildan beri Qohirada faoliyat ko'rsatgan "al-Ba's" (البعث) oynomasini nashr etgan Quvayt adiblari jamiyati bilan bog'liq. Tanqidchi Tohir Ahmad Makkiyning [3:22] qayd etishicha, bu oynomada 1947-yili chop etilgan ilk Quvayt zamonaviy hikoyasi Hamid Xuludning qalamiga mansub bo'lib, u "Suv va osmon o'rtasida" (بين الماء و السماء) deb nomlangan edi. Hech qancha vaqt o'tmay bu muallifning "Yoshlikning orzulari" (أحلام الشباب) deb nomlangan birinchi hikoyalar to'plami nashrdan chiqdi. Quvayt yozuvchilarining birinchi avlodi Ahmad Udva, Yusuf Shayjii, Hamad Girballiy kabi yozuvchilar Misr universitetlarida ta'lim olib, Misr adabiyoti bilan yaqindan tanishib tajriba orttirgan edilar. XX asr 40-50-yillardagi hikoyalarida syujet chiziqlari nisbatan bo'sh bo'lib, ularda nasihat ohangi va yuzaki bayonchilik uslubi ustivorlik qilar, ular, asosan, oilaviy munosabatlardagi ahloqiy mavzularga taalluqli edi.

60-yillar boshida Quvayt adabiyotiga Sulaymon Shotiy (1943-y.tug'), Abdulaziz Sariiy (1939-y.tug'), Sulaymon Xulayfiy (1946-y.tug') va Laylo Usmon (1945-y.tug') kabi hikoyanavislarning yangi avlodi kirib keldi. Tohir Makkiyning o'rinni ta'kidiga ko'ra, "bu avlod hikoya texnikasini yaxshilashda jiddiy qadam qo'ydi va hikoya mazmunining ijtimoiy yo'nalishini belgilab berdi" [3:42]. Garchand hikoyalar maxsus alohida to'plam shaklida nisbatan kam nashrdan chiqsa ham, vaqtli matbuot sahifalarida - oynoma va ro'znomalar bu adiblar hikoyalarini doimo nashr etib turardi.

XX asr o'rtalarida Quvayt hikoyachiligi jadallik bilan shakllandi, zamonaviy ko'rinish kasb etib, hayotni tahliliy tasvirlay boshladi. Quvayt adabiyotining jahon adabiyoti va Misr, Lubnon, Suriya, Tunis, Iroq kabi madaniy jihatdan rivojlangan arab mamlakatlari adabiyoti tajribasi bilan yaqindan tanishishi shunday imkoniyatlarni yaratdi. Ayniqsa, Misr yozuvchilari XX asrning boshlaridayoq hikoya janrida mahoratga erishgani uchun Quvayt adiblari ijodiga misrlik nosirlarning ta'siri alohida o'rin tutadi.

Quvaytning mustaqillikka erishishi (1961) milliy adabiyot rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni yuzaga keltirdi. Mustaqil Quvayt adabiyoti namoyandalari davr olg'a surayotgan masalalarga mas'uliyatli va o'ta aniq javob berishlari zarurligini tushunib yetdilar. Arab dunyosi va Quvaytda avj olayotgan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy jarayonlar hikoya kabi janrni jadal rivojlantirdi va uning zimmasiga o'zgarib borayotgan voqelikni badiiy obrazlarda to'laqonli, balki tezkorlik bilan aks ettirish vazifasini yukladi. Zero, asosan an'anaviy yo'lida rivojlangan Quvayt adabiyoti yangi adabiy-ma'rifiy vazifalarni bajara olmas edi. XX asr 60-yillarda tez rivojlana boshlagan hikoyachilik aynan yangiligi e'tibordan juda muhim sanaladi.

Mamlakatda adabiyotshunoslik, tanqid va publitsistika maktabi rivojlana bordi. 1964-yilning noyabrida Quvaytda yozuvchi, shoir, dramaturg va tanqidchilarni birlashtiruvchi yozuvchilar ligasi tashkil topdi. 1966-yilning apreldan boshlab, bu liga har oy "al-Bayan" (البيان) jurnalini nashr eta boshladi. Bu jurnalda nafaqat Quvayt mualliflari, balki boshqa arab va xorijiy mamlakatlar yozuvchi va shoirlarning asarlarining tarjimalari ham tarjimasi chop etildi.

Sulaymon Shotiy, Abdulaziz Sariy, Ismoil Fahd, Valid Rajab, Laylo Usmon, Surayyo Baqsamiy va boshqalarning asarlarida Quvayt jamiyati boshidan kechirayotgan ijtimoiy o'zgarishlarga munosib yangi poetik tafakkur alomatlari seziladi.

Bu yozuvchilar voqelik tasvirida asosan realistik metodni qo'llashdi; ba'zi hikoyalarida romantik kayfiyat ham ko'zga tashlanadi. Ayrim tanqidchilar Quvayt adabiyotidagi romantizmga xos unsurlarni Yevropa, Misr va Suriya adabiyoti tajribalarining ta'siri bilan bog'laydilar. Romantizm adabiyoti arab mamlakatlarida XX asr boshlarida paydo bo'lgan edi. Boshqa tanqidchilar, xususan, taniqli Quvayt adabiyotshunoslaridan Ibrohim G'alum va Muhammad Sharaf bu adabiy hodisani Quvayt jamiyatidagi o'zgarishlar samarasi deb hisoblaydi. Ibrohim G'alum 1981-yilda chiqqan "Fors ko'rfazidagi arab mamlakatlarida qisqa hikoya. Quvayt va Bahrayn" nomli kitobida shunday yozadi: "Biz hikoyanavislikdagi romantizm hodisasini romantizm tamoyillarini nazariy jihatdan o'zlashtirgandan so'ng badiiy tajribaning tatbiq etilishi sifatida baholay olmaymiz. Bu hodisa Quvayt jamiyatida paydo bo'lib, Quvayt voqeligidagi obyektiv sabablar natijasida hayot va adabiyotga singib ketishi mumkin bo'lgan hodisadir. Quvayt hikoyasida romantik obraz shaxs va jamiyat o'rtasidagi kelishmovchilik, bu shaxsning tashvishlari va o'tmishini hamda kelajakdagi fozil jamiyatni qo'msashini ko'rsatish uchun paydo bo'lgan" [3:5].

Badriya Musaidning "*Omina*" (أومينا), Fodil Xalafning "Sharpa", Fahd Duvayrining "*Qariya va qushcha*" (الرجل العجوز و الطائر) kabi hikoyalarida zamondoshlarining barcha ziddiyatli his-tuyg'ulari va tashvishlarini o'zida aks ettirgan obrazi tasvirlandi. Sulaymon Shotiy, Farhan Farhan, Hasan Yoqub Alining ba'zi hikoyalarida qahramonlarining hayotdan hafsalasi pir bo'lib, umidlari chilparchin bo'lgan, beg'ubor yoshlikni va ularning tasavvurida yo'qotilgan ijtimoiy tenglikni qo'msashlari kuzatiladi. Ular yangiliklar ketidan quva olmaydilar, chunki eski odatlar va an'analarga bog'lanib qolgan bo'ladilar. Shuning uchun yoshligini, o'tmishni qo'msaydilar. Nazaridagi o'tmishga xos ijtimoiy tenglik yo'qolgani tufayli sarosimaga tushgan qahramonlar ruhiy bo'hrondan qutulish yo'llarini izlaydilar.

Muhammad Majidning intellektual qahramonlari esa go'zallik, muhabbat, yaxshilik va baxtga olib boruvchi ideallarni izlab, oxir-oqibat uni topolmay o'zligiga, o'z ichki dunyosiga qamalib, jamiyatdan o'zlarini olib qochadilar. Taniqli Quvayt tanqidchisi Muhammad Yosir Sharaf bu kayfiyatlarni ijtimoiy munosabatlarning jadallik bilan o'zgarishini hamda seldek yopirilib kelayotgan axborot oqimini hazm qilish qiyin bo'lganligi bilan izohlaydi. Misr, Suriya va Iroqdagi milliy-ozodlik harakatlari, keyinchalik Isroil bilan bo'lgan urush Arab Sharqini junbushga keltirdi. Quvaytning o'zida Britaniya bilan hamkorlikka qarshi vatanparvarlik harakatlari kuchaya bordi. Taraqqiyot uchun yangi ufqlar ochila boshladi. Yaqindagina eski feodal tuzumdan chiqib, yangi iqtisodiy munosabatlarga shiddat bilan kirib kelgan jamiyatda eski an'analari yangi qadriyat va mezonlar bilan to'qnashib, ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Adabiyotda esa, bu hodisalarni badiiy talqin etish va tafakkur qilish tamoyili kuzatildi. "Bu yozuvchilarning romantizmi, - deb yozadi Muhammad Yosir Sharaf, - ziyolilarda bir-biriga zid bo'lgan ikki his uyg'otdi, bir tomondan, hayotdan uzoqlashuv, o'zini olib qochish tuyg'usi, ikkinchi tomondan esa, jamiyatni isloh qilish va o'zgartirish istagi hukm surardi. Bu hodisalar uyg'unlik va muvozanat izlayotgan shaxsni tasvirlayotgan psixologik hikoyanavislik yo'nalishiga asos soldi" [4:49].

Ibrohim G'alum ta'kidlaydiki: "Yopirilib kelgan iqtisodiy yuksalish kishilar ko'nglida kelajakka ishonch uyg'otishi kerak edi. Buning o'rniga shunday dunyoni his qilish bo'ldiki, unda umid bilan umidsizlik, loqaydlik bilan isyon ruhi kabi romantik ziddiyatli hislar bilan sug'orilgan yangi dunyoqarashlar kuzatiladi" [3:45]. Ammo bizning fikrimizcha, romantizm metodi Quvayt hikoyachiligida adabiy yo'nalish sifatida mustahkam o'rin egallay olmadi. Quvayt mualliflari asarlaridagi romantik kayfiyat so'z ustalarining hayot haqiqatlarini aks ettirishda ijodiy metod sifatida ustuvor hisoblagan realizm bilan birga uyg'unlashadi. Sulaymon Hulayfa, Sulaymon Shotiy, Abdulaziz Sariy, Xadaya Sulton Salim¹, Laylo Usmon², Surayyo Baqsamiy kabi taniqli yozuvchilarning asarlari tahlili shuni ko'rsatadiki,

¹ Xadaya Sulton Salimning "Jahon adabiyoti" jurnalida (2009-yil 1-son) arab tilidan Sh.Ahmedova tarjimasida "Ayol qalbi" asari bosildi.

ularning hikoyalarida realizm metodiga xos nazariy tamoyillar ustuvorlik qiladi. Ularning asarlarida obrazlar tabiati jamiyat va muhit orqali ochilib beriladi. Bu qahramonlar boshdan-oyoq barcha ziddiyatlari, kamchiliklari bilan olganda, o'z xalqi va jamiyatining vakillari sanaladi.

Ijtimoiy muammolar doirasi kengayishi, arab adabiyoti rivoji ham hikoya janridan yangi badiiy yechimlar yangi tamoyillarni talab qildi. Masalan, Fahd Duvayriy (1921-1999) o'z ijodida oldiga qo'yan eng muhim vazifasi hayotiy haqiqatni va uni his etishni yetkazib berish edi. O'z ijodi bilan u real voqelik va badiiy to'qima o'rtasidagi to'siqni go'yoki bartaraf etgandek edi. Fahd Duvayriy dastlabki realizmning bir muncha soddada tushunchasiga moyil bo'lgan, ammo uning ijodida ko'p o'tmasdan yangicha fikrlar yuritish, turli uslublardan foydalanish kuzatiladi.

Fahd Duvayriy birinchi Quvayt hikoyanavislaridan biri bo'lib, 1948-yil iyul oyida uning "Voqelikdan" (من الواقع) nomli hikoyasini nashr etilgan edi. Quvayt hikoyanavisligiga qadam qo'yan adibning birin-ketin uning boshqa hikoyalari "al-Ba's" (البعسة), "Kozima" (كوزيما), "al-Saraid" (الصريد) jurnallarida goh o'z ismi va ba'zan taxalluslari bilan (masalan, "Yantoq o'g'li" (ابن العاقول), "Keksa" (عجوز), "Hikoyachi" (قاص)) nashr etildi [5:104-107].

Fahd Duvayriy Quvayt hikoyanavisligi rivojiga o'ziga xos turki berdi. Quvayt adabiyotshunosligida uning ijodi bilan adabiyot rivojining ikkinchi bosqichi boshlandi. Duvayrining ijodiy qarashlari ko'p yozuvchilar tomonidan qabul qilindi. Ular ham o'z qahramonlari hayotini nafaqat ijtimoiy shart-sharoitlar fonida ko'rsatishga, balki ijtimoiy islohotlar g'oyalarini targ'ib etishga yo'naltirdilar. Bu xususiyat Abdulaziz Husayn (1920-1993), Sulaymon Shotiy (1941y.tug'.) Sulaymon Xulayfiy (1942y.tug'.) kabi yozuvchilar ijodiga xos bo'lib, Quvayt hikoyanavisligining jadal rivojlanish bosqichi ayni adiblar nomi bilan bog'lanadi. Ularning asarlarida xorijiy hukmronlik yillaridagi oddiy insonlar hayoti haqida, mustaqillik uchun kurashganlar haqida hikoya qiladilar.

Mazkur davr Quvayt yozuvchilarining aksariyatiga hikoya qilishning bir tomonlama, narrativ uslubi xosdir, ammo ular kitobxon ongiga jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarning qaltis tomonlarini, voqelik haqiqatini katta mahorat bilan singdirdilar. Bundan tashqari, dunyoning cheksizligini, yaxshilik, eng ezgu kelajak uchun kurash har joyda olib borilayotganligi va insoniyatning taraqqiyoti uchun barcha ilg'or kuchlarining ehtiyoji borligini ko'rsatishga muvaffaq bo'ldilar.

Masalan, yozuvchi Abdulaziz Sariy (1939-y.tug'.) ijodida ruhiy tahlil, ramziy obrazlar bilan ish ko'rishga moyillik kuzatildi. U voqelikni tasvirlashning "ong oqimi" ("tiyar al-va'yi") usulidan keng foydalanadi [6:44-50]. Adibning "Uch azob" (ثلاث معاناة), "Nihoya" (النهاية) kabi hikoyalarida botiniy shuur yo'sinidan foydalanib yozish usuli kuzatiladi.

Yozuvchi Ali Jadid «Qonli ufq»[7:127-133] hikoyasida matn ichida matn usulini qo'llaydi. Asosiy syujet bosh tekstiga qo'shimcha matn kiritiladi. Masalan, hikoyada asosiy matnda kambag'al talaba va do'kondor qizining besamar muhabbati hikoya qilinadi. Qo'shimcha matnda ilonning qafasdagi qush yoniga borishi tasvirlanadi. Ilon qafasga sudralib kiradi. Yozuvchi ilonning har bir harakati va qo'rquvdagi qushning tapirlashini sinchkovlik bilan kuzatadi. Sirtidan qaraganda, ikkala matn mustaqil xarakterda bo'lib, o'zaro aloqador emasdek tuyuladi. Biroq hikoya o'qib chiqilganidan so'ng, qo'llangan usul hikoya tugunining yechimini kuchaytirgani aniq kuzatiladi. Qushcha uchib ketishga muvaffaq bo'ldi, ilon esa bir burchakka tiqilib, kulcha bo'lib oldi. Talaba va qiz ajralishadi. Har qaysisi o'z yo'lidan ketadi, talaba o'qishini davom ettiradi, u o'z oilasini oyoqqa qo'yishi kerak edi. Qiz esa badavlat odamga turmushga chiqadi va baland devor ortida yashay boshlaydi. Ikki mustaqil matnning o'zaro ichki aloqasi hikoya obrazlarining ta'sirchanligini kuchaytiradi.

² Laylo Usmonning "Jahon adabiyoti" jurnalida (2009-yil 1-son) arab tilidan Sh.Ahmedova tarjimasida "Jinni qiz" asari, shuningdek, Laylo Usmonning (1998-yil 4-son) rus tilidan N.Jo'rayeva hamda A.Fayzulla tarjimasida "Vasmiya dingizdan qaytib chiqadi" asari bosildi.

Sulaymon Hulayfa (1946-y.tugʻ.) aksincha, keskin syujet tuguni va hikoya mazmunidagi sabab va oqibat mutanosibligiga katta ahamiyat beradi. *“Befoyda savollar”*, *“Chiqish vizasi”* kabi hikoyalari shuga misol boʻladi [7:174-181].

70-yillarda ayol adibalar ijodi keng qanot yozib, rivojlana boshladi.

Adiba Laylo Usmonning ilk hikoyalari oddiy odamlarning kichik xursandchilik va tashvishlari tasvirlashiga bagʻishlanadi. Uning hikoyalarida adibaning mahorati aniq seziladi. Surayyo Baqsamiyning ilk hikoyalari ham milliy ruh, kundalik Kuvayt turmushi va voqeligini aks ettirishi bilan ajralib turadi. Yozuvchi detallarni sinchkovlik bilan tasvirlaydi, uning qahramonlari xalqona ekanligi koʻzga tashlanadi.

Oʻzining ilk hikoyalarida Surayyo Baqsamiy dengiz boʻyida yashaydigan odamlarning qiyin hayoti haqida hikoya qiladi. Bu odamlarga hali iqtisodiy oʻzgarishlar yetib kelmagan va ularning hayoti dengiz bilan bogʻliq. Chunki dengiz ularni boqadi. Ular baliq ovlaydilar, shu bilan birga ularga boylik va munosib hayot keltiruvchi boylikni orzu qilib dur va marvarid izlab chigʻanoqlarni umid bilan ochib koʻradilar.

Ayollar mavqei mavzusi 1960-1970-yillarda juda kengayib, Kuvayt hikoyasining asosiy mavzusiga aylandi. Muhabbatning ayovsiz urf-odatlar bilan toʻqnashuvi kabi koʻhna syujetning yangi sharoitda taraqqiy etishi har doim oʻquvchining eʼtiborini tortadi. Xadaya Sulton Salim (*“Alanga”*, *“Alangandan kuchli”*), Ali Jadid (*“Qonli ufq”*), Surayyo Baqsamiy (*“Oftob kelinchagi”*) Laylo Usmonning (*“Qizlar mahallasidagi kuyov”*) hikoyalar mavzusi mana shu masalalarga bagʻishlangan edi[7].

Universitet talabasi boʻlgan Sulaymon Shotiy tomonidan 1962-yilda eʼlon qilingan *“Rul”* (الدفة) nomli ilk hikoyasida xalq ogʻzaki ijodi, afsona, urf-odatlar badiiy shaklga kirdi va koʻp hollarda yangicha gʻoyaviy-badiiy talqin etildi. Bu xususiyat uning toʻplamlariga kirgan koʻpgina hikoyalarga xosdir (*“Boʻgʻiq ovoz”* (الصوت الخافت) 1970-y., *“Yuqori martabali odam”*, (رجل من الرف العالي) 1982). Detailarni mohirona tanlash, oʻziga xos aniq kompozitsiyalar – Sulaymon Shotiy ijodiga xos boʻlgan xususiyatdir. Sulaymon Shotiy zamonaviy Koʻrfaz hikoyanavislarning eng isteʼdodli namoyandasi sifatida tanildi. U 70-yillarda oʻzining kuvaytliklar hayotining turli jabhalarini tasvirlovchi realistik hikoyalar yozdi. Yozuvchining badiiy mahorati zamon oʻzgarishlarini ilgʻab olishda va nozik did bilan asarda gʻoyaviy-estetik maqsadiga koʻra ifoda etishda bilindi. U oʻzining birinchi hikoyalar toʻplami *“Rul”* (الدفة) nomi bilan nashr etilishi orqali kitobxon va tanqidchilar eʼtiborini oʻziga tortgan edi. Toʻplamdagi hikoyalar Kuvayt xalqining yaqin oʻtmishi bilan bogʻliq edi. Bu oʻtmish ancha ogʻir va mashaqqatli. Toʻplamga nomi berilgan *“Rul”* hikoyasi yuk tashiydigan kemada suzuvchi dengizchilarning mehnati tasvirlanadi. Boʻronda qolgan kema tugʻyon urayotgan toʻlqinlar orasidan kelayotganda tubi qoyaga tegib teshiladi va suv kirishini toʻxtatish maqsadida jasurona kurashib, bir amallab teshikni yopishadi. Bu 20 soatlik kurashda rul bir odam qoʻlida - yosh yigit Abu Ahmadda qolib ketadi. Bir qadam ham ruldin siljimagan va uni qoʻldan qoʻymagan Abu Ahmad bor kuchini kemani boshqarishga qaratib oxiri sovuqda qotib qoladi va vafot etadi. Dengiz navbatdagi qurbonning jasadini yutadi. Oʻsha kemanding dengizchilari boshqalar uchun jonini fido qilgan doʻstini doimo yodga oladilar. Bu hikoya oddiy dengizchilar xotirasiga bagʻishlanib boʻlib, ularning qahramonona jasoratini tarannum etadi.

Dengiz kuvaytliklarga baliq, marvarid va boshqa tirikchilikka yaraydigan neʼmatlar bergan, ammo qancha-qancha umrlarga zavol ham boʻlgan. Dengiz sohilida yashash ham oson boʻlmagan. Eng katta muammo bu ichimlik suvining yoʻqligidir. Ichimlik suvi baʼzida Koʻrfaz orqali boshqa joylardan kemalarda olib kelinadi. Baʼzida kemalar halokatga uchraydi, yukidan mosuvo boʻlishadi, sohildagilar suvsiz qoladi. Mana shu muammo Sulaymon Shotiyning *“Yangilik”* (الابتكار) hikoyasida ham koʻtariladi. Sohilda joylashgan qishloqdagi odamlar umid bilan dengizga tikilishmoqda, uzoqdan suv yuklagan yelkanli kema yaqinlashmoqda. Ammo kema suv ostidagi qoyaga urilib agʻdariladi. Suvli idishlar qulab tushib choʻkadi. Odamlarning umidi soʻnadi. Yozuvchi personajlarni nutqlari, harakatlari, oʻzaro munosabatlari orqali vaziyatning manzarasini xuddi mohir rassomdek chizib beradi. Bu hikoya orqali kitobxonga yer yuzida shunday joylar borligi ayon boʻladiki, bir qatra ichimlik suv qiymati

bebaho sanaladi. Uni o'qigan o'quvchi hikoya qahramonlari singari suvga tashnalik hissini tuyadi va "oldingdan oqqan suvni qadri yo'q" maqoli qanchalik xalq tajribasidan kelib chiqqanini tushunadi va suvning qadri to'g'risida o'ylanib qoladi. Hikoya nihoyasida yozuvchi umidga joy qoldiradi - uzoqda boshqa suv tashuvchi kema yelkanlari ko'rinadi, bu yangilik qishloqdagilarga yangi umid bag'ishlaydi.

Boshqa bir "*Ichki sezish*" (الإحساس لداخلي) hikoyasi Quvaytda jo'shqin iqtisodiy o'zgarishlar, katta qurilishlar boshlangan davrni qamrab oladi. Bu o'zgarishlarni hamma kuvaytliklar ham xush ko'rib, qabul qilishmaydi, chunki ba'zilar yangiliklar qandaydir xavotir va shubha uyg'otadi. Hikoya qahramoni 70 yoshli Abu Modiy ana shunday insonlarning biridir. Uning kasbi ustachilik bo'lib, eski uylarni ta'mirlash bilan shug'ullanadi. Ketma-ket barpo bo'layotgan ko'p qavatli uylar unga yoqmaydi, oddiy qutilami eslatadi. Umuman atrofdagi qurilish shiddati uni qo'rqitadi. Buzilayotgan eski uylarni ko'rib uning ko'ngli buziladi, chunki xuddi hayotining bir qismi yo'q bo'lib ketayotgandek tuyuladi unga. Bu uylar har biri o'z shakli- shamoyiliga, o'z qiyofasiga ega edi, bir-biridan ajralib turar edi. Qurilayotgan ko'p qavatli binolar esa qarovsiz, rangsiz bir shakldagi unga yot bir narsadek ko'rinadi. O'zi o'tmishda ta'mirlagan, endi buzilayotgan uylarga borib, o'z ishini tomosha qilishga odatlangan Abu Modiy halokatga uchraydi. Bu eski uylarda hech kim yo'q, deb o'ylagan buldozer haydovchisi Abu Modiy bo'lgan xonaning devorini buzadi va chol uning tagida qolib vafot etadi. Bu hikoyada kuvaytliklarni o'tmishi bilan vidolashuvi bor. Bir tomondan yangi hayot shovqin-suroni oldida o'tmishni qo'msash, uning sokinligi, hayotning sekin-asta o'tishi, kam bo'lsa ham rizq-nasibaning topilishi ko'rsatiladi. Ikkinchi tomondan, bu o'zgarishlar zaruriyati seziladi. Katta ko'chalar, osmono'par chiroyli binolar, yarqiragan oynali do'konlar, katta shahar shukuhi moziy ustidan g'alaba qilishi aniq va qat'iydir. Qahramon ham ich-ichidan shuni biladi, bilib sarosimaga tushadi. Bejiz uning nomi Abu Modiy emas. Ma'nosi "o'tmish-moziy otasi" demakdir. Ammo kelajak yangi avlodlar qo'lida. Hikoyada ham yengil qayg'u, o'tmishni romantik ruhda tarannum etish, ham uni vaqti o'tganligi hissiyoti mavjud.

Sulaymon Shotiyning uchala hikoyasi an'anaviy realistik uslubda yozilgan. Kompozitsiyasi izchil, sabab-oqibat chizig'ida shakllangan, xotimalari mantiqiy isbotlangan. Syujet tuzilishi personajlar harakatiga asoslangan, hodisa-voqealar birin-ketin hayotiy tarzda shakllanadi. Bu dastlabki hikoyalarda Shotiy so'nggi ijodida ro'y bergan psixologizm tahlili hali deyarli ko'rinmagan, faqat Abu Modiyning shuurlari va iztiroblarini tasvirlashda yozuvchi psixologik unsurlar kirgazib, ozgina ruhiy holati tahliliga to'xtaladi.

Fors ko'rfazi hududining boshqa mamlakatlari kabi Quvaytning butun hayoti uchun neftning ulkan zahiralarning kashf etilishi yangi impuls bo'ldi. Biroq "qora oltin" juda ulkan daromadlar bilan birga yangi kutilmagan tashvishlar olib keldi. Quvayt yozuvchilari har biri o'ziga xos tarzda jamiyatdagi islohotlarga javob berdilar, ular bunday mulkdorlar dunyosidagi inson qismati haqida o'ylandilar. Hayotning an'anaviy tartibdagi o'zgarishlari haqida fikr yuritdilar. Jahon sivilizatsiyasi bilan tanishish oqibatida G'arb mamlakatlari adabiyoti va madaniyati ta'siri ostida ularda yangi tasavvurlar paydo bo'ldi.

Ayniqsa, 70-yillardan boshlab hikoyanavislik maydonida o'zgacha ijod paydo bo'ldi. Uning ortida haqiqiy iste'dod egalari turar edi va ular tufayli Kuvayt hikoyasi rivojlangan arab hikoyasi safiga qo'shildi. 80-90 yillarda esa bu janming yuksalishini ko'rinadi, hatto turli tus olgan hikoya janrining ko'rinishlari (tiplari) bir-biri bilan adabiy musobaqalashishda bo'lib, turli jahon tajribalarini o'zlashtirdi va saralarini mujassamlashtirdi, eng avvalo, adabiy rivojlangan arab mamlakatlari oldingi arab hikoyachilik tajribasidan bahramand bo'ldi.

Quvayt yozuvchilari o'z asarlarida jamiyatni tashvishga solayotgan muammolarni aks etadilar. Bir tomondan bu muammolar ma'lum darajada butun arab adabiyoti uchun an'anaviy bo'lib, garchand yondashishda siljish bo'lsa ham, oilaviy munosabatlar, ayollarning huquqlari masalasi kabi mavzular yetakchi bo'lib qoldi. Ikkinchi tomondan bu muammolar ko'lamini iste'molchilik dunyosidagi odamlar taqdiri, urushdagi inson, muhojirlikda yolg'izlik kabi masalalar bilan kengaytiradilar. Quvayt hikoyasi ichki ziddiyatga asoslangan mavzularga kirishganda har kim ma'lum ijtimoiy qatlamning voqelikka munosabatini, uning dunyoga qarash nuqtayi nazarining qirralarini tushuna boshlaydi.

XX asr 80-yillarida Quvayt adiblari safiga bir qator yosh yozuvchilar kirib keldi. Volid Rujayb, Muhammad Ajmiy, Hamid Xamad, Abdulvahob Sayid va boshqalar shular sirasiga kiradi. Ular Quvayt hamda Ko'rfaz mamlakatlari yozuvchilaridan birinchi bo'lib, milliy fantastika va triller mavzulariga murojaat etishdi. Yangi avlodga mansub bo'lgan yozuvchi ayollar qatorida Muna Shofiy, Fotima Yusuf Ali, Favziya Shuvaysh Salomni ko'rsatish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, 80-yillarda Quvaytda hikoya janri, yetuklik darajasiga borib, haqli ravishda uning asoschilari hisoblangan mualliflar ijodi ayni ravnaq topgan pallada edi. Bular Sulaymon Shotiy, Sulaymon Hulayfa, Abdulaziz Husayn, Laylo Usmon va boshqalar dir. Ular o'z asarlarida xorijliklar hukmdorligi davridagi hayotdan boshlab, mustaqillik uchun kurash, badaviylarning o'troq hayotga o'tishi, neft konlarining ochilishi bilan mamlakatda yangi hayot boshlanganligi haqida yozdilar. Adiblarning boy va o'ziga xos obrazlarida ularning dunyoqarashi, mafkuraviy mavqei, estetik qarashlari, ijodiy tajribasi, qolaversa, ruhiy olami mujassamlashdi. Bu adibalar voqea-hodisalarni loqaydlik bilan fotosurat kabi tasvirlamasdan, balki ularni o'z iste'dodlari darajasidan kelib chiqib badiiy gavdalanitirishga harakat qiladilar. Albatta, keng ko'lamdagi barcha obrazlar inson uchun xizmat qiladi va uning shaxsi atrofida aylanadi. Ayniqsa, inson obrazi bilan bog'liq majoziy ma'no asosida yaratilgan obrazlar murakkab xarakterga ega bo'lib, mualliflardan iste'dod va tahayyul parvozini, hayot qonunlarini bilishni, muayyan muhitni ishonarli aks etishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. علوم ابراهيم عبد الله. القصة القصيرة في الخليج العربي. الكويت و البحرين. مطبعة الارشاد. بغداد، 1981. – ص. 735.
2. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1986. –Б.258.
1. 1. 3. علوم ابراهيم عبد الله. القصة القصيرة في الخليج العربي. الكويت و البحرين. مطبعة الارشاد. بغداد، 1981.
1. 4. شرف محمد ياسر، القصة القصيرة في الخليج العربي، قراءات، مركز الكتاب العربي. الكويت، 1979.
5. فهد الدويرى القص و الانسان، العربي، ابريل. ص. 104-107.
6. شرف محمد ياسر، القصة القصيرة في الخليج العربي، قراءات، مركز الكتاب العربي. الكويت، 1979. – ص. 44-58.
7. Ветры залива. Сборник рассказов / Пер.с арабс. Предисловие А.Васильева. – М.: Радуга, 1984. – 264 с.
8. Ahmedova, Shahlo Irgashbaevna BAHRAYN YOZUVCHILARI FAVZIYA RASHID VA AMIN SOLIH HIKOYALARI USLUBI // ORIENSS. 2021. №Special Issue 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bahrayn-yozuvchilari-favziya-rashid-va-amin-solih-hikoyalari-uslubi>.
9. Akhmedova, Shakhlo Irgashbaevna THE ISSUE OF WOMEN'S PLACE IN THE FAMILY AND SOCIETY IN THE CREATION OF GULF ARAB COUNTRIES' LITERATURE // ORIENSS. 2022. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-issue-of-womens-place-in-the-family-and-society-in-the-creation-of-gulf-arab-countries-literature>.
10. Ахмедова, Ш. (2021). Новые художественно-методологические принципы сторителлинга в ОАЭ. *Востоковедения*, 1(1), 4–13. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/oriental-studies/article/view/15813>
11. Akhmedova, Shakhlo Irgashbaevna. (2021). "SYMBIOSIS OF ARTISTIC TRENDS IN CONTEMPORARY LITERATURE OF THE ARAB COUNTRIES OF THE PERSIAN GULF." *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)* 2.09, -P.105-109.
12. Akhmedova, Shakhlo Irgashbaevna. (2021). "Ideological and artistic searches in the short stories of the arab countries of the persian gulf at the beginning of the XXI century." *Asian Journal of Multidimensional Research* 10.10,-P. 838-842.

13. Ahmedova, Shahlo Irgashbaevna. (2022). FORMATION AND IMPROVEMENT OF REALISTIC STORY IN KUWAIT AND BAHRAIN LITERATURE. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1. Special Issue 6,